

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Qo‘qon davlat universiteti
rektori D. Sh.Xodjayeva

29-avgust 2025-yil

TA’LIM FALSAFASI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar

Ta’lim sohasi: 220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan
tashqari)

Ta’lim yo‘nalishi: 60220500 - Falsafa

Fan / modul kodi TF1204		O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 4
Fan / modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ta'lim falsafasi	60	60	120
2.	Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Ta'lim falsafasi fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan AQShning Boston universitetining Falsafa fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet Asosiy reytinglar va e'tiroflar US News & World Report Milliy universitetlar: so'nggi nashrda 41-o'rin. QS World University Rankings 2026: Jahon miqyosida 88-o'rinni egalladi, bu o'tgan yillarga nisbatan ko'tarilgan. Global miqyosda eng yaxshi 6%: BU QS tomonidan baholangan 1501 ta institutning eng yaxshi 6 foizida. US News & World Report Global Universitetlar (eski reyting): 2022-2023 yillarda eng yaxshi jahon universitetlari orasida 70-o'rinni egalladi. Dasturda quyidagi asosiy jaihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Boston universitetining Falsafa kursida ta'lim falsafasi bilan bir qatorda, fanning asosiy tushunchalari, g'oyalari, nazariyalari va usullarini, shuningdek, ta'lim falsafasi evolyutsiyasining asosiy yo'nalishlari va rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirish; davlat boshqaruvi va jamiyatdagi munosabatlarining ta'lim falsafasi bilan uzviy bog'liqligi va o'ziga xos xususiyatlariga doir nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarni tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro ta'lim me'yorlari, xususan, ilmiy madaniyat normalari va qoidalarini, dunyoni siyosiy idrok etishning samarali texnologiyalarini, shuningdek, siyosiy voqealarni yoritishning o'ziga xos xususiyatlari, ichki va xalqaro siyosiy kun tartibini ekspert baholash usullari, siyosiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa xavf va tahdidlarni aniqlash prinsiplari asosida boyitilgan. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyodagi axborot oqimini siyosiy-tanqidiy idrok etish, mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o'rganadilar.			

Bakalavr talablari: bitta falsafa kursi yoki ikkinchi kurs talabasi. - Fizika, biologiya va aqlni o'rganish bo'yicha ilmiy misollardan foydalanadi. Fanning maqsadlari, ilmiy tushunishning tabiati, ilmiy nazariyalarning tuzilishi va talqini, fanning rivojlanishiga e'tibor beradi. CASda gumanitar fanlar bo'limi kreditini olib boradi.

I. Fanning mazmuni

Ta'lim falsafasi fani jamiyatning madaniylashuvi, ijtimoiy ongning o'zgarishi, texnogen tafakkurning shakllanishida ta'limning evolyutsiyasi jarayonidagi turli yondashuvlarni o'zida mujassamlashtiradi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishda kreativ yondashuvni shakllantiradi.

Fanni o'qitishdan maqsad - ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, ta'limning uzviyligini ta'minlash, professional malakalarni shakllantirish, boshqaruv va pedagogik faoliyatda ta'lim takomillashtirish siyosatini joriy qilishda ishtirok etishdan iborat.

Fanning vazifalari - ta'lim tizimidagi yangi islohotlarga moslashish, siyosiy ijtimoiy vaziyatning mohiyatini bilish va munosabat bildirish, mavjud qonun va farmonlarning ijrosini ta'minlashda ishtirok etish malakalarini shakllantirish; zamonaviy ta'lim tizimining yutuqlari asosida ta'lim falsafasi ontologiyasiga oid bilimlar doirasini kengaytirish; ta'lim oluvchilarning zamonaviy tarbiya va ta'lim strategiyasini egallash, integratsiyalarayonlarini tahlil qilishning falsafiy madaniyatini o'zlashtirish; ilmiy ma'lumotlardan tanqidiy foydalanish malakalarini shakllantirish; fanni o'zlashtirish orqali talabalarda kasbiy va pedagogik kompetensiyani shakllantirishdan iborat.

3.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Ta'lim falsafasi metodologik jihatlari

Ta'lim falsafasining mohiyati. Ta'limning va ma'lumotli odamlarning qadriyatli mo'ljallari. Ta'limning falsafa va pedagogika sohasida rivojlantirishning ahamiyati. Ta'lim va tarbiyaning antropologik jihatlari. Ta'lim falsafasida jismoniy, ma'naviy ijtimoiy tarbiyaning roli. Bakalavriat uchun talablar: bitta falsafa kursi yoki ikkinchi kurs talabasi. o'rganish bo'yicha ilmiy misollardan foydalanadi. Mavzuning maqsadlari, ilmiy tushunishning tabiati, ilmiy nazariyalarning tuzilishi va talqini, fanning rivojlanishiga e'tibor beradi.

2-mavzu. Ta'lim falsafasida tarbiyaning mohiyati

Tarbiyaning mohiyati, predmeti va vazifalari. Tarbiya jarayoni. Gumanitar tarbiyaning mantig'i. Tarbiya jarayonidagi inqiroz holatlari tarbiya jarayonida vaziyatlarning roli. Tarbiyaning zamonaviy konsepsiyalari. Tarbiyaning

qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya vositalari. Tarbiya usullari. Tarbiyaning dialogik xarakteri. Tarbiya jarayoniga tizimli yondashuvning ahamiyati. Tarbiya jamoasi. Tarbiya jarayonida tyutorlarning roli. Tolerantlik tarbiya va ta'limning gumanitar asosi. Tarbiyaning vazifalari. Diniy e'tiqodga tolerantlikni tarbiyalashning ahamiyati.

3-mavzu. Tarbiya evolyutsiyasi: Ibtidoiy jamiyatda tarbiya shakllari

Ibtidoiy odamlar davridagi ta'lim-tarbiya. Jamoa bo'lib mehnat qilish va jamoa bo'lib iste'mol qilish. L.G.Morganning "Qadimgi jamiyat" asarida tarbiya va ta'limga oid g'oyalar. Urug'chilik jamoasi bosqichida bolalar mehnatining ko'liami kasb-hunar faoliyatining turlari. Ibtidoiy harbiy tarbiya. Ibtidoiy maktablarda og'zaki bilimlar yozuv ko'nikmalarining shakllantirilishi. Ibtidoiy suratkashlik, piktografik xat paydo bo'lishi, harflar yordamida yozish usuli paydo bo'lishi. Mif ibtidoiy jamiyatda bilimni yetkazish va tarbiya vositasi sifatida. Ibtidoiy jamoalarda insonning tabiiy va ma'naviy tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Matriarxal jamiyatda ta'lim tarbiya masalalari. Ibtidoiy jamoada tarbiya va bilim yetkazish vositalari. Ibtidoiy tarbiya va ta'limning o'yin shakli.

4-mavzu. Qadimgi sivilizatsiyalarda tarbiya va ta'limningshakllanishi va rivojlanishi

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasida ta'limning paydo bo'lishi. Mesoptamiya, Shummer-Akkad shahar davlatida ta'lim va tarbiya tizimi. Qadimgi Misr davlatchiligining shakllanishida tarbiya va ta'lim jarayonlarining o'rni. Misr madaniyati va ta'limi, teokratiyasi. Qadimgi sivilizatsiyalarda gumanitar, tabiiy fanlar, tibbiyot, matematika va geometriyaning shakllanishi. Qadimgi Hind diniy an'analarida ta'lim jarayonlari shakllanishining tarixiy davrlari. Qadimgi Xitoyda maktab tarbiyasining yo'nalishlari. Qadimgi Yaponiyada ta'lim- tarbiyaning o'ziga xos jihatlari. Qadimgi Eron sivilizatsiyasida tarbiya va ta'lim. Kir II hukmronligi davridagi ta'lim va tarbiyaning asosiy mezonlari: qattiq va qiyin jismoniy muhit; faol va ijobiy zardushtiylik dini va axloqi; jangari, ekspansionist odam. Mayya, Aztek va Inkalarning yangi dunyo sivilizatsiyalarida ta'lim va tarbiya. Buddizmida ta'lim-tarbiya.

5 - mavzu. Antik sivilizatsiyada tarbiya va ta'lim.

Antik sivilizatsiyada tarbiya va ta'lim usullari. Afina va Sparta ta'lim va tarbiya jarayonlaridagi o'zaro aloqadorligi va farqlari. Pifagor maktabida matematika va musiqa ma'naviy tarbiya vositasi. Platon akademiyasida tarbiya va ta'lim. Aristotel pedagogikasining ratsional empirik tamoyillari. Qadimgi

Rimda ta'lim va tarbiyaning yangi usullari. Gerodotning "Didaskaleion", "ta'lim uchun joy", "bo'sh vaqt" ma'noni anglatuvchi "scholc" umumiy atamasining hozirgi kundagi ahamiyati. "Pedagog" tushunchasining mohiyati va uning paydo bo'lishidagi ijtimoiy sharoit. Sokratning tarbiya maktabi. Qadimgi Yunonistonning siyosiy hayotida Afina maktabi. Platon akademiyasi. Ellinizm davri va Rim imperiyasi davridagi tarbiya va ta'lim. Rim modifikatsiyalari.

6-mavzu. O'rta asrlarda tarbiya va ta'lim usullari

Vizantiyada diniy e'tiqodning pedagogik faoliyatga ta'siri. O'rta asr Yevropa mamlakatlarida diniy va dunyoviy ta'lim. Sxolastlar pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlari. Ilk ta'lim maktablari, kollejlari, universitetlarning tashkil qilinishi. O'rta asr Hindiston va Xitoy ta'limi. O'rta asr Sharq davlatlarida tarbiya va ta'limning yo'nalishlari. Islom ta'limi va madaniyati. Tarbiyada islom an'analarining o'rni. O'rta asrlarda yaqin va O'rta Sharq ta'lim va tarbiya usuli tafakkuri. Ilk madrasalar tarbiyasi va ta'limi. Ilk O'rta asrlarda Sharqda shakllangan tarbiya va ta'lim. O'rta asr Sharq ta'limiga Yunon-Vizantiya tarbiya va ta'lim usullarining ta'siri.

7-mavzu. Yevropa ta'lim institutlarining evolyutsiyasi

Uyg'onish davrida ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar. Ma'rifat davrida ta'lim konsepsiyalari. Ta'limning klassik nemis falsafasidan modernizm davri tomon rivojlanishi. Kant pedagogikasi amaliy falsafa sifatida. Gegel falsafasida ta'limning mohiyati. Pestalossik pedagogik tizimi gumanizmi. Postmodernizm an'analarida ta'limning ijtimoiy madaniy omillari.

8 - mavzu. XV-XVIII Sharq ta'lim falsafasi

Uyg'onish davrida pedagogik g'oyalar va ta'lim reformalari. Ma'rifatparvarlik davrida ta'limga oid falsafiy konsepsiyalar. Nemis klassik falsafasida ta'lim va tarbiya usullari. XV asrda qadimgi yunon ta'lim tarbiya tizimiga murojat qilinishi. Gimnaziyalar faoliyatining takomillashtirilishi. Nosxolastik an'analar XV asming eng aqlli va o'ziga xos me'morlaridan biri bo'lgan Leon Battista Albertining ta'lim usullari. "Della famiglia" asarining mohiyati. Shimoliy va G'arbiy Yevropaning gumanistik an'analari. Angliya, Fransiya, Gollandiya, Ispaniya va Italiyadagi gumanizmning intellektual va madaniy inqilobining sabablari. Martin Lyuter, Jon Kalvin, Frensis Bekon, Rene Dekart, Jon Lokkning ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari.

9-mavzu. XIX asr va XX asr dunyo ta'lim paradigmasi

Sharq va G 'arb ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari. (Yaponiya, Xitoy, Angliya, Fransiya, Germaniya tajribasi). A.Shopengauer va F.Nitshe falsafasida kelajak odami ta'limi haqidagi g 'oyalar. R.Shtaynning antroposof pedagogika haqidagi g'oyalari. J.Piajening shaxs rivoji haqidagi kognitiv nazariyasi. L.Vgotskiyning insonning kognitiv rivoji haqidagi ijtimoiy tarixiy konsepsiyasi. Postmodernizm da ta'linming ijtimoiy madaniy mo'ljallari. XX asr oxirida dunyo ta'lim siyosati. XIX-asrda G'arbiy Yevropada ta'iim. XIX asrda yangi ijtimoiy, iqtisodiy va intellektual kuchlar. Yangi texnologiyalarning yaratilishi. Pestalotsi pedagogikasi. Pestalotsining ta'siri. Froebel va bolalar bog'chasi harakati. Gerbart psixologiyasi va pedagogikasi. Spenserning jamiyat haqidagi islohotlari. Gumboldt islohotlari. Yevropada yangi nemis universitetlar.

10 —mavzu. XX asr 0 'zbekistonda ta'lim yo'nalishlari

XIX-XX asrlardagi ijtimoiy, siyosiy sharoitlarning ta'lim va tarbiya tizimiga ta'siri. Turkistonda jadidchilik harakati va ta'lim-tarbiya. Turkiston o'lkasida pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi. Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Jadidlarning ta'limga oid dasturlari. Behbudiy, Avloniy, Fitrat. Ta'limga oid sovet hukumati siyosati va savodsizlikni bartaraf etish bo'yicha harakatlar. 1917-1920-yillarda Turkistonda maorif yangi tizimining tashkil etilishi va pedagogik fikrlar. 1924 - 1941-yillarda xalq maorifi, o'quv dastur, qo'Uanma va darsliklarning yaratilishi, ta'lim-tarbiya ishlari. Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi yillarda 0 'zbekistonda xalq maorifi va ta'lim - tarbiya ishlari. Majburiy 7 yillik ta'limga o'tilishi. XX asrning 70-90-yillarida xalq ta'limi va pedagogik fikrlar. Sovet davrida O'zbekistonda ta'lim tizimi va hozirgi kunda bu sohada amalga oshirilayotgan islohatlar va uning samarasi.

11 - mavzu. Industrial jamiyatda ta'lim maqsadlari

Ogyust Kont falsafasida ta'lim va tarbiyaga oid g'oyalar. Gerbert Spenser falsafasida ta'lim va tarbiya dialektikasi. Djon Dyui ta'lim falsafasining pragmatik jihatlari. Ushinskiyning ta'lim falsafasi. Makarenkoning ta'lim va tarbiyaga oid g'oyalari.

12-mavzu. Ta'lim subyektlarining jamiyat taraqqiyotidagi roli

Pedagog ta'lim jarayonlarini tashkil etuvchi subyekt. Pedagog faoliyatida yuqori mas'uliyat. Pedagogik faoliyat obyektlari va pedagogik ta'sir. Pedagogik muloqot mahorati. Ota-onalar va bolalarning ta'lim subyektlari sifatidagi roli. Oilatarbiyasida ta'limga munosabat.

13 - mavzu. Ta'lim makoni va ta'lim jamiyati

Ta'lim ontologiyasi va gnoseologiyasi. Ijtimoiy falsafa doirasida ta'lim makoni. Ta'lim makonida shaxsning roli. Ta'lim falsafasidan tarbiya falsafasiga yo'l. An'anaviy va muqobil ta'lim makoni. Ta'lim mantig'i. Ta'lim metodologiyasi. Ta'lim etikasi. Ta'limda ijtimoiy muhitning o'rni.

14 - mavzu. Zamonaviy ta'limning falsafiy metodologik asoslari

Yagona ta'lim makonini yaratishga tizimli yondashuv. Ta'lim jarayonini o'rganish va loyihalashtirishning afzalliklari. Ta'lim jarayonini modellashtirishning strukturali genetik yondashuvlari. Ta'limga genetik yondashuvning ahamiyati. Ta'lim strategiyasining falsafiy asoslari. Talimda shaxsiy fazilatlarining o'rni. Ta'limga madaniy yondashuvning falsafiy metodologik jihatlari. Ta'lim tizimida shaxsiy tajribaning roli. Ta'lim va tarbiya tizimida umuminsoniy, milliy individual yondashuvlarning falsafiy asoslari. Pedagoglarning psixologik ma'naviy qiyofasi. Zamonaviy tarbiya tizimida ta'lim falsafasi.

15- mavzu. XXI asr ta'lim paradigmalari

Axborot texnologiyalari va internetning zamonaviy ta'lim tizimining globallasuvi omili sifatidagi ahamiyati. Diniy ta'lim va uning ahamiyati. Oliy ta'lim va uning yo'nalishlari. Masofaviy ta'limning ustivor yo'nalishlari. Oliy ta'lim bo'yicha Lissabon konvensiyasi. Boloniya deklaratsiyasi. Ta'lim tizimida xorij tillarini bilishning afzalliklari. Oliy ta'limga kvota ajratishning dunyo va O'zbekiston amaliyoti. Pedagogning muloqot san'ati. Pedagog maqomi va hozirgi davrda yaratilayotgan sharoitlar.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar **Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

- 1-mavzu: Ta'lim falsafasi metodologik jihatlari
- 2-mavzu: Ta'lim falsafasidatarbiyaning mohiyati
- 3-mavzu: Tarbiya evolyutsiyasi: Ibtidoiy jamiyatda tarbiya shakllari
- 4-mavzu: Qadimgi sivilizatsiyalarda tarbiya va ta'limning shakllanishi va rivojlanishi
- 5-mavzu: Antik sivilizatsiyada tarbiya va ta'lim.
- 6-mavzu. O'rta asrlarda tarbiya va ta'lim usullari
- 7-mavzu: Yevropa ta'lim institutlarining evolyutsiyasi
- 8-mavzu: XV-XVIII asrlarda Sharq ta'lim falsafasi
- 9-mavzu: XIX asr va XX asr dunyo ta'lim paradigmasi

- 10-mavzu: XX asr O'zbekistonda ta'lim yo'nali
- 11-mavzu: Industrial jamiyatda ta'lim maqsadlari
- 12-mavzu: Ta'lim subyektlarining jamiyat taraqqiyotida
- 13-mavzu: Ta'lim makoni va ta'lim jamiyati
- 14-mavzu: Zamonaviy ta'limning falsafiy metodologik asoslari
- 15-mavzu: XXI asr ta'lim paradigmalari

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekistonda falsafa ta'limining rivojlanish bosqichlari mavzusida esse tayyorlash.
2. Sovet davrida falsafani o'qitishning afzalliklari va kamchiliklari mavzusida esse tayyorlash.
3. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimi bo'yicha analitik tahlil tayyorlash va uning taqdimotini o'tkazish.
4. XX asr jadidlarining ta'lim va tarbiyaga oid qarashlarini hozirgi davr nuqtai nazaridan tahlil etish.
5. YUNESKO tashkilotining ta'limga oid dasturlarining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumot tayyorlash va uning taqdimotini o'tkazish.
6. Xorij davlatlarida ta'lim tizimi bo'yicha ma'lumot tayyorlash va uni T sxemasi asosida O'zbekiston ta'lim tizimi bilan qiyosiy tahlil etish.
7. Xitoy va Yaponiya ta'lim tizimining o'zaro aloqasi va farqi bo'yicha esse tayyorlash.
8. O'zbekiston maktablarida "Tarbiya" fanini tashkil etilishi bo'yicha videorolik tayyorlash.
9. Ta'lim innovatsiyalari mavzusida esse tayyorlash.
10. Ta'limning gumanizatsiyasi va istiqbollari haqida esse tayyorlash.
11. O'zbekiston va xorij ta'lim muassasalarida oliy ta'limni tashkil etishdagi umumiylik va farqlarni qiyosiy tahlili bo'yicha taqdimot tayyorlash.
12. O'qituvchi shaxsining mas'uliyati: pedagogik muloqotni tashkil etish mahorati bo'yicha esse tayyorlash.
13. Ta'lim tizimini boshqarish: muammo va yechim mavzusida esse tayyorlash.
14. Talabalarning o'quv-ilmij-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan mavzularni chuqur o'rganish.
15. J.Dyuining "Kelajak maktablari" asarining mohiyatini O'zbekiston maktablari misolida tahlil etish.

	16. Ta'lim falsafasining dunyoqarashga doir funksiyasini Avloniy, Behbudiy, Kant, Gegel, Sheler ta'limotlarning qiyosiy tahlil etish. 17. Ta'lim va tarbiya dialektikasini ta'minlashdagi muammolar va yechim mavzusida esse tayyorlash. 18. Diniy va dunyoviy ta'lim uyg'unligini ta'minlashning dunyo va O'zbekiston amaliyoti esse tayyorlash. 19. Universitet ta'limi tarixi va hozirgi zamon mavzusida esse tayyorlash. 20. Ta'limning futurizatsiyasi va kelajak ta'limi istiqbollari. 21. Yaponiyadata'lim innovatsiyalarining yo'nalishlari. 22. Xitoy ta'lim tizimidagi islohotlar. 23. AQSh ta'lim makoni bo'yicha esse tayyorlash. 24. Yevropa davlatlari ta'lim makoni mavzusida vediorolik tayyorlash. 25. Makarenkoning ta'limga oid g'oyalarini tahlil qilish. 26. Pestalosining ta'limgaoid g'oyalarini tahlil qilish. 27. Gerbart psixalogiyasi va pedagogikasi. 28. Monsterossining pedagogik fikrlari va qarashlari. 29. Frobel harakati va islohotlari haqida esse tayorlash. 30. F.Nitshe falsafasida ta'lim tarbiyaga oid g'oyalarning ahamiyati haqida esse tayyorlash.
4.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - tarbiya va ta'lim tushunchasining mohiyatini, ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy tamoyillari va ulaming amal qilish mexanizmlari haqida tasavvurga ega bo'lishi ; - jamiyatdagi voqea va hodisalarga munosabat bildirga olish, ulaming mohiyatini tushunishi, tarbiya va ta'lim falsafasining sivilizatsiya va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli, ta'lim va barqaror taraqqiyot uyg'unligi haqida bilimga ega bo'lishi va ulardan foydalana olishi; - ijtimoiy jarayonlar mohiyatini tahlil qila olishi, inson kapitalini shakllantirishga, shaxsning o'z iqtidorini namoyon qilishga yo'nalgan bilim va qadriyatli mo'ljallar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.
5.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish;
6.	VII.Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va

	topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha belgilangan test yoki yozma ishni topshirishi zarur.
7.	Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari Asosiy adabiyotlar 1. Y.M.Nomozova. Tarbiya va ta'lim falsafasi. O'quv qo'llamna. - Toshkent: Lesson-Press, 2024. 2. Мандил Б.Р. Философия образования. Учебное пособие. - М.: Директ Медиа, 2022.- 501 с. 3. https://www.ucl.ac.uk/mathematical-physical-sciences/sites/mathematical_physical_sciences/files/sts_module_catalogue_u_g_2025_26_v1.pdf 4. https://www.ucl.ac.uk/module-catalogue/modules/knowledge-and-reality-PHIL0003 5. https://www.bu.edu/academics/cas/courses/cas-ph-253/ Zamonaviy xorijiy adabiyotlar 3. Stephen Davies, Kathleen Marie Higgins, Robert Hopkins, Robert Stecker, and David E. Cooper. A Companion to Aesthetics. Second edition. Wiley-Blackwell. A John Wiley & Sons, Ltd., Publication, 2017. Qo'shimcha adabiyotlar 4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir. Ma'ruza. - T.: Tasvir, 2021. - 36 bet. 6. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma'ruzalaridan olingan fikrlar. - Toshkent: "Yoshlar nashriyot uyi", 2019. 7. Путилова Л.М. Бубнова М.И. Философия и история образования. - Москва: Юрайт, 2017. 8. Борытко Н.М., Соловцова И.А., Байбаков А.М. Теория и методика воспитания. - Волгоград: 2006. 9. Z.M.Muxamedova. Ta'lim falsafasi paradigmalari. - Toshkent: ToshMI, 2006. 10. Розин В.М. Философия образования. - Москва: 2007. - 210 с. 11. Базалук О. Философия образования в свете новой космологической концепции. Учебник. - К.: Кондор, 2010. - 458 с.

	12. Николаева, Людмила Юрьевна. Философия образования. - М.: Мир науки, 2015. - 60 с. Elektron manbalar 13. www.ziyouz.uz. 14. www.ziyouz.uz. 15. www.pedagog.uz. 16. www.edu.uz
8.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
9.	Fan/ modul bo‘yicha mas’ullar: A.N.Meliboyev – Falsafa va dinshunoslik kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).
10.	Taqrizchilar: B.J.Shamsiddinov – Falsafa va dinshunoslik kafedrasi kafedrasi mudiri, falsafa doktori (PhD). I.Siddiqov – FarDU, Falsafa va milliy g‘oya kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori(DSc)